

---

## Tadbirkor ayol poyabzal tayyorlash faoliyatini tashkil etdi

Qo'shtepa tumanidagi "Garmdon" mahallasida yashovchi Marxabxon So'piboyeva tikuvchilik faoliyati bilan shug'ullanar edi. U mahalla hokim yordamchisiga tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagi borligini bildirdi. Shundan so'ng hokim yordamchisining tavsiyasi bilan olingan kredit asosida poyabzal tayyorlash faoliyatini ham yo'lga qo'ydi.

Hozirda u 100 million so'm imtiyozli kredit va o'z mablag'lari hisobiga poyabzal tayyorlash faoliyatini tashkil etib, 8 ta ishchi o'rni yaratdi.

2024-10-28 10:59:51